



Saparbek MIRZABAYEV,

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti,
E-mail: smirzabaev018@gmail.com*

Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, f.f.k K.Bekbergenov taqrizi asosida

QORAQALPOQ ESSE MATNLARIDA METAFORALARNING USLUBIY XUSISIYATLARI

Аннотация

Maqolada badiiy tasvir vositalarining ichidagi muhim va ko'p qo'llaniladigan turi, metafora haqida so'z boradi. Tadqiqotimizning predmeti - metafora va uning semantik-stilistik turlari, ularning paydo bo'lish usullari va aytilgan tropni hosil qiluvchi formantlik ko'rsatkichlari. Ushbu lingvostilistik xususiyatlarni qoraqalpoq tilidagi matbuotda e'lon qilingan esse janridagi asarlarning matnlari misolida o'rganishni maqsad qildik.

Kalit so'zlar: Metafora: an'anaviy, sinestetik, personifikatsiyali, ochiq va yopiq metaforalar, esse tili va uslubi.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОРЫ В ТЕКСТАХ КАРАКАЛПАКСКИХ ЭССЕ

Аннотация

В статье обсуждается метафора, важный и часто используемый тип среди средств художественного изображения. Предметом нашего исследования являются метафора и ее семантико-стилистические типы, способы их возникновения и показатели формантности, образующие упомянутый троп. Мы поставили перед собой цель изучить эти лингвостиллистические особенности на примере текстов эссе, опубликованных в каракалпакской печати.

Ключевые слова: Метафора: традиционная, синестетическая, персонифицированная, открытая и закрытая метафоры, язык и стиль эссе.

STYLISTIC FEATURES OF METAPHORA IN KARAKALPAK ESSAY TEXTS

Annotation

The article discusses metaphor, an important and frequently used type among artistic imagery tools. The subject of our research is metaphor and its semantic-stylistic types, their methods of occurrence, and the indicators of formantity that form the said tropus. We aimed to study these linguostylistic features on the example of texts of essays published in the Karakalpak language press.

Key words: Metaphor: traditional, synesthetic, personification, open and closed metaphors, essay language and style.

Kirish. Badiiy asarga daxldor bo'lgan har bir so'z, har bir leksema o'rinsiz qo'llanilmasligi aniq. Qo'llanilayotgan barcha so'zlar o'ziga xos leksik-semantik, grammatik ma'no anglatib kelish orqali asarning qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, til ilmi so'zlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilib aniqlashga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini dalillab ko'rsatishga erta davrlardan boshlab kirishgan. Bunday tadqiqotlar natijasida har qanday tildagi leksemalarning grammatik va leksik ma'nolarini belgilab ko'rsatuvchi maxsus mezonlar yaratildi deyish mumkin. So'zlarning ko'chma ma'noga o'tishi ma'lum vositalar orqali, ya'ni troplar va stilistik figuralar tufayli amalga oshadi. Troplarining esa bir necha turlari bo'lib, ularning ichida so'z ma'nosining ko'chishida tez-tez qo'llaniladigan turlaridan farqi - bu metafora.

Shuning uchun ham, biz bu maqolamizda metaforik ma'noning qoraqalpoq esse matnlarida qo'llanilishini, ularning turlari va metaforadan foydalanishdagi sabab va natijalarni tahlil qilishga, metaforaning stilistik xususiyatlarini aniqlash orqali esse matnlarining badiiy darajasining, esse janrining o'ziga xos lingvistik va janr xususiyatlarini muhokama qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Troplar, shu jumladan metafora masalasining dastlabki ilmiy rakursda o'rganila boshlanishi eramizdan oldingi davrlardagi Qadimgi Yunoniston faylasuflarining nomi bilan bog'liq bo'ladi. Xususan, qadimgi yunon olimi Aristotelning "Ritorika" va "Poetika" asarlarida, Sitseronning bitiklarida metafora haqidagi fikrlar uchraydi. Bu mutafakkirlarning fikrlari XX asrgacha jahon ilmda yetakchilik qilib, shu nuqtai nazardan tushuntirilib kelindi. XX asrga kelib esa metafora terminiga sof ilmiy rakursdan qarash boshlandi. Bu faoliyat T.Gobbs, J.Lokk, F.Nitche, Kassiyer, A.A.Reformatskiy, A.I.Yefimov kabi ko'plab jahon olimlari nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Shuningdek, turkiy tilshunoslikda ham bu masala alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida L.Abdullayev, S.Ashirbayev, I.Mirzayevlarning

ishlarida metaforalarning badiiy asarlardagi stilistik qo'llanilishi o'zbek tili materiallari asosida o'rganilgan bo'lsa, qozoq tilshunosligida R.Sizdiqova, G.Musabayev, Q.Jumaliyevlar metaforani qozoq adabiy tili va Abay asarlari misolida o'rganib, uning stilistik-poetik funksiyalarini aniqlaganini ko'rsata olamiz.

Metafora masalasi qoraqalpoq ilmda tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, ko'proq adabiyotshunoslik, shu jumladan folklorshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilib kelindi. Bu yo'nalishda metaforani o'rganish N.Davqarayev, I.Sag'itov, Q.Ayimbetov, N.Japaqov, M.Nurmuhammedov kabi ko'zga ko'ringan adabiyotshunos olimlarimiz shug'ullandi. Bu olimlarning tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan bo'lsa ham, so'zning badiiy asarlardagi stilistik-semantik vazifalari haqidagi bildirgan fikrlari qoraqalpoq tilshunosligi uchun ham qadirlil ma'lumot bo'lib xizmat qildi.

Metaforani qoraqalpoq tilshunosligida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish va uning asarlardagi funksiyalarini ochib berish kabi masalalar bilan shug'ullanish eng avval N.A.Baskakovning nomi bilan bog'lanadi. Undan keyingi davrlarda bu masala bilan yana ham to'liqroq shug'ullangan olimlar sifatida E.Berdimuratov, A.Bekbergenov, H.Hamidov, E.Allanazarov, Sh.Abdinazimov, T.Jumaboyev, B.Yusupovalarni ko'rsatishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Esse matnlari tarkibida qo'llanilayotgan metaforik usuldagi so'zlarni aniqlashda tadqiqot usullari sifatida lingvistik qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Bu usullar orqali esse matnlarida qo'llanilayotgan metaforalarning shakli va tuzilish turlari, uslubiy va kognitiv xususiyatlari tegishli misollar yordamida tushuntiriladi.

Tahlil va natijalar. Metafora - u yoki bu predmet yoki hodisaning nomi orqali o'zaro turi, shakli, harakati va h.k. belgilarining o'xshashliklariga qarab ikkinchi bir predmet yoki hodisa nomining ifodalanishi [4]. Metaforik qurilmada

qo'llaniladigan so'zlar o'zining qandaydir bir belgisiga asoslangan holda ikkinchi bir tushunchani anglatib keladi. Metaforik faoliyatda qo'llaniladigan so'zlar o'zlarining nomemalik va sememalik jihatlariga bog'liq holda o'zgacha bir munosabatga o'tish holatiga ega bo'ladi. Ya'ni, so'zlarning nomemalik (tashqi tomoni) tomoni o'zining dastlabki to'g'ri ma'nosida ishlatiladi-da, uning sememalik holati o'zining dastlabki ma'nosiga asoslangan ikkinchi bir yangi ma'noga o'tib turadi. Boshqacha aytganda, to'g'ri ma'no - denotat sifatida o'zi anglatgan narsa yoki hodisani bildiradi, yangidan paydo bo'layotgan mazmun, ma'no esa - signifikat. Bularning barchasi bir vaqtning o'zida butun bir kompleks qo'shma birlik hisoblanadi [2].

Har qanday badiiy asarning til xususiyatlari o'zining janr talablariga to'liq rioya qilishdan, ijodkorlarning mahoratiga bog'liq bo'ladi. Har bir muallif o'z fikrini asarlarida aniq, ravshan tasvirlab yetkazish uchun umumxalq tilidagi "gavhar"lardan o'rinni ravishda foydalanadi, zarur o'rinlarda esa tildagi tayyor holatdagi lug'at tarkibiy birliklarini o'z g'oyasini ochib berish uchun yangi ma'nolarda qo'llaydi. Barcha janrlar kabi, "publististik matnlarda ham obrazli figuralar ma'nosida qo'llanilgan so'z, unga tobe bo'lgan, ma'no jihatdan bog'langan va shu kabi ko'chma metaforik ma'noda ishtirok etadigan butun bir so'z zanjirini o'ziga tortib turadi" [9]. Bunday "butun bir so'z zanjiri"ning o'ziga tortuvchi xarakteri o'sha asarlarning stilistik xususiyatlarini, o'sha metaforik munosabatdagi butun bir qurilmaning komponentli tuzilishi, semantik ma'nolarining identivlik holatini aniqlash orqali yanada to'liqroq ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham, adabiy uslubning muhim elementlaridan biri hisoblanib, "narsa va predmetlar, voqea-hodisalar, ularni izohlaydigan tushunchalar orasidagi dialektik muvozanatli va bog'liq so'zlarning nutqda butunlay yangi ma'nolarda qo'llanishini paydo qiladi va u to'liq ravishda muallifning subyektiv fikrlariga, imkoniyatiga bog'liq holda yuzaga chiqadi. Badiiy uslubda poetik metafora nafaqat dolzarb badiiy vosita, balki badiiy tafakkur elementi, estetik hodisaga aylanadi" [10]. Har qanday til birligini qandaydir janrning tarkibida qo'llanilishiga lingvostilistik tavsif berishda A.I.Yefimovning mana bu fikrini boshchilik qilishimiz ma'qul: "Badiiy asar tilining o'ziga xosligi uning obrazli-ekspressiv faoliyatida ko'rinadi, nutqning ekspressiyasi faqat stilistik jihatdan betaraf til vositalari va kontekstlar bilan qiyoslab tavsiflashdagina aniqlanadi" [2]. Qoraqalpochka esse matnlaridagi metaforizatsion hodisalarga stilistik yondashishda ham qoraqalpoch tilshunosligining bugungi lingvistik ta'riflarini boshchilikka oldik:.

Tilshunoslikdagi metaforaga an'anaviy tarzda baho berish - bu so'zning qanday ko'chma ma'noga o'tishi, bunda metaforik funksiyada turgan so'zning tanishlik va qo'llanish aktivligi asosida guruhlariga bo'linishi hisoblanadi. Bu borada professor E.Berdimuratov quyidagicha tasnif ko'rsatadi: 1) umumxalq tilidagi metaforalar; 2) Umumxalq, lekin obrazli xarakterga ega metaforalar; 3) umumxalq tilida taniqli bo'lmagan metaforalar [4]. Metafora bo'yicha maxsus dissertatsiya ishini himoya qilgan E.Allanazarov metaforalarni quyidagi guruhlariga ajratib o'rganadi: 1) betaraf uslubiy leksik metaforalar; 2) umum xalq obrazli-ekspressiv metaforalar; 3) individual uslubiy metaforalar [2].

Tadqiqotimiz davomida esse matnlari tarkibidan metaforalarning yuqoridagi tasniflarda ko'rsatilgan talablarga mos keladigan barcha turlarini ham uchrata oldik. Misoli: Sa'gan basta kóp narse jazbaqshi edim, biraq suwıp qaldım. (Sh.Usnatdinov "Azat Berdishev fenomeni" essesi). ...Dem alis beriwden ózi ósken uyağa qaray ushti (S.Bahadirova "29 jastan 50 jasqa shekem tyurmada" essesi). Óziñ bil, balam. Turmis – úlken mektep, uzaq jol. Oğan joldas kerek. (Sh.Payzullaeva "Nurata dástanı" essesi) h.t.b

Bizning e'tiborimizni tortgan narsa - metafora guruhlarining ichidagi uchinchi guruh, ya'ni individual stilistik metaforalar bo'ldi. Chunki bunday metaforalar orqali muallifning so'z tanlash mahorati, metaforaning matnga baxsh etib turgan badiiy bo'yqlari ko'proq namoyon bo'ladi. Misoli: ...Biziñ kempirdiñ aspandagi yashullılar menen bir baylanısı bar bolıwı kerek (Sh.Usnatdinov "Azat Berdishev fenomeni" essesi). Ákem

onıñ hárbir qosıgın oqıgán sayın kewli tasıp, "Qaraqalpaqstan Pushkini bolatuğın talantı bar" dep tolıqınlanıp otırar edi. ...Túbinde haqıyqatlıq júzege kelgenshe gıybatlar ılaysañı kewlimizge hazar berip, pushayman jegenbiz (G.Shamuratova "Biybizada" essesi). ...Kelinniñ mektebi ene boladı. ...Átırap jasıl jipek lipasın sheship, qonır, qızıl, sarı ala shayı kóylegin kiyip alğan. ...Janğan jerlerime jamaw bolğan shırağım, dey beredi. (G.Dáwletova "Uzatılıw" essesi) Quda qálese, aldımdayı qaqaman qattı qıslardıñ da soñında jazları barlıgına isenemen (J.Járimbetova "Kewlimdegi gápler" essesi)

Misollarda e'tiborga olingan metaforik birliklarimiz essenavistlarning ijodiy mahorati orqali bayon qilinayotgan fikrning uslubiy ta'sirchanligini birmuncha oshirish uchun ishlatilmoqda. Bu leksemalar umumxalq tilida mavjud birliklar bo'lishiga qaramasdan, ijodkorlarning mahoratlari orqali yangi semantikaga o'tib, tilimizning boyigini oshirish uchun xizmat qilib turganini aytishimiz kerak.

Esse matnlari tarkibida metaforalarning boshqa turlarini ham uchratishimiz mumkin. Shulardan biri, metaforalarni hosil qiluvchi komponentlarning, ya'ni aniqlanuvchi (mavzu - A) hamda aniqlovchi so'zlarning (obraz - V) matn tarkibidagi semantik ma'nolarining aniq-noaniqligiga ko'ra guruhlanishidir. Ya'ni, bunda denotat va signifikat o'rtasidagi o'xshashlik ma'nolarining taniqlilik holati asosga olinadi. Bu nuqtai nazardan metaforalar nazariy asarlarda ikki guruhga bo'lib o'rganiladi: 1) ochiq metaforalar; 2) yopiq metaforalar. [6].

1. Ochiq metafora - A komponent bilan V komponent orasidagi C - ya'ni o'xshashlik aniq tushunarli va ma'lum bo'ladigan metaforalar guruhi. Misoli: Awırıw jağdayında ol on jıldı alıp, qaytadan tyurmanıñ diywalına baylandı. ...Aqırı, usı ekewiniñ basqa bul dúnyada súyener tawı joq (S.Bahadirova "29 jastan 50 jasqa shekem tyurmada" essesi). Ullı ómir bazarıman ózimniñ neler satıp, nelerdi satıp alıp qaytqanımdı yamasa ómir saxnasında óz wazıypamdı qalay atqarganımdı elege deyin dúrislap bahalay almayman. ...Qullası, men sağan násiyat qılıw ushın ómirimde jibergen qáte-kemshiliklerimniñ basın da, ayağın da tappay qoydım (T.Qayıpbergenov "Qaraqalpaqan, ómirde táwekelshimen" essesi). Ol jılları sıziqtan zárre qıya ketken jalğız awız sóz ushın siyasatıñı qarazına túsip, dándey tartılıp ketiw múmkin edi. (K.Smamutov "Jaqsı adamlardıñ jıllı alaqañı" essesi). Hárkim táğdirine ózi juwapker. Densawlıgıñnıñ gılti óziñniñ qolında. (Sh.Payzullaeva "Quyash sónbeydi" essesi)

Misollarda e'tibor qaratilgan metaforalarning hammasida ham metaforik konstruksiyaning barcha elementlari o'quvchi uchun tushunarli bo'lib, oddiy tasviriy shaklda kelgan bo'lsa-da, matnda o'zining stilistik funksiyasini to'liq bajarib turibdi deya olamiz. Bu orqali esse tilining va muallif tilining xususiyatlari ma'lum bo'la olgan.

2. Yopiq metafora - A komponent bilan V komponentning o'zaro birga qo'llanilishi uchun asos bo'lib turgan C komponent faqat to'liq kontekstdan, ijodkorning fantaziyasidan bog'liq bo'ladigan metaforalar guruhi. Misoli: ...Al, komsomol sárdarı Semichastniy "Boris Pasternak turgan jerin pataslaytuğın shoshqa" dedi (K.Smamutov "Jaqsı adamlardıñ jıllı alaqañı" essesi). "Men pisip turgan qawınman!... (S.Bahadirova "29 jastan 50 jasqa shekem tyurmada" essesi). ...Aradan az gána ótpey-aq joqarıdagi "ilim jezóksheleri" zaman agımına iykemlesti de ketti. (K.Smamutov "Allanıñ rehimı – ananıñ mehri" essesi). Poeziya! Sen kewil shamshırağısañ (T.Masharipova "Ómir gúli" essesi). Aral – Allataalanıñ jerdegi bir qúdireti – házirgi zaman tili menen aytqanda, Allataalanıñ kóp sırlı, kóp qırlı bir kondicioneri (T.Qayıpbergenov "Türkiynama" essesi). Sharap, házir lekciya tıñlap otırmın. Professor, docentler. Eki saatta mimikaların, háreketlerin, potologin bilip alasañ da bar-á deysen. ...Bas máselede pul hám Kutuzovtıñ shıdamlılıgı kerek! (Sh.Usnatdinov "Azat Berdishev fenomeni" essesi).

Misollardagi metaforalar mualliflar tomonidan badiiy yaratilgan bo'lib, ularning tarkibidagi C - ya'ni, o'xshashlik belgilari yangicha shaklda yaratilganini ko'ramiz. Bular esse matnlariga o'ziga xos badiiy bo'yoq berib, o'ziga xos uslubiy vazifa bajarish uchun maxsus shaklda yaratilgan metaforik so'z yasash usullaridir.

Lisoniy jarayon hisoblanadigan metaforalar komponentlarning o'zaro munosabatda qo'llanilishiga ko'ra ham

tasniflanadi. Ya'ni bunda denotat bilan signifikat o'rtasidagi o'xshashlik belgining semantik xarakteri yetakchilik qiladi va bu mezon bo'yicha metaforalar uch guruhga bo'linadi: 1) Oddiy metafora; 2) personifikativ metafora; 3) sinestetik metafora [7].

1. Oddiy metafora - metaforizatsion usuldagi komponentlar o'zaro har qanday belgi, xususiyatlarining yaqinligiga asoslanib shunchaki taqqoslanib, o'xshatilib, yangi nomga ega bo'lishidan hosil bo'ladigan metaforalar. Misoli: Kishkene Qúndendi bir jaǵı es kórip, bir jaǵı aldanshıq etiw, sóytip júrek jarasın sál-pál bolsa da jazıw ushın tárbıyasına aldı. ...Usı kúni bul úydiń ǵana emes, qaraqalpaq jurnalistikasınıń bir jarıq nurı sóngen edi (T.Masharipova "Qúden" essesi). Qalayınsha ózgeniń mülkin óz mülkińe aylandırıwǵa boladı? Urasań uradı, satıp alıwǵa pul kerek. Demek, dúnyanıń tutqası - pul (O.Ábdıraxmanov "Mirzanıń isi" essesi).

Misollarimizda ko'rsatilgan metaforalar mualliflarning badiiy so'zni boshqacha tushunish orqali so'zlarning orasidagi turli-tuman o'xshashliklarni mahorat bilan topa olganliklarini va shularning natijasida o'zlarining fikr-mulohazalarini ta'sirli, badiiy shaklda yetkazib, uslubiy o'ziga xoslik kiritganliklaridan dalolat beradi.

2. Personifikatsiyali metafora. Bunda metaforik signifikatning semasi odam va odamga xos bo'lgan turli belgilarni anglatib turadi-da, ular odamdan boshqa jonli yoki jonsiz predmetlarning (denotatlarning) ma'nosini tushuntirish uchun qo'llaniladi. Metaforaning bu turida ham so'zlarning leksik ma'no referentlarining tashqi belgi, harakat yoki sifat xususiyati funksiyasi doirasida o'xshatiladi. Lekin bu o'xshashlik har qanday o'xshashlikni emas, faqat subyektga (odamga) xos bo'lgan belgilarning ishtiroki orqali jonli-jonsiz tushunchalar qayta nomlanib, holatga ega bo'ladi. Ushbu xususiyat personifikativ metafora uchun asos hisoblanadi. Misoli: Qaratawdıń hárbir tası xalqımızdın tariyxın ózinde saqlap, búginliginde áste-aqırın ishki "sırın" aqtarıp atır. (O.Ábdıraxmanov "Mirzanıń isi" essesi). Uzaqtaǵı urıs óziniń uzın miyrimisiz qolları menen biziń

balalıǵımızdı urlap ketti (I.Yusupov "Shayırılıq haqqında shamalı sóz") Úydiń esiginiń oń qaptal tárepinde turǵan stoldıń ústindeǵı radiopryemnik sóylep tur (M.Ibragimov "Aq otaw" essesi)

3. Sinestetik metafora - metaforik komponentlarning sezgi semasiga xos bo'lgan so'zlarning mahoratida paydo bo'lgan, sezgi semalarining bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishidan paydo bo'ladigan turi. Ya'ni, bir sezgi hodisasining ma'nosini ikkinchi bir sezgi tushunchasi bilan bayon etish. Misoli: Biraq, boz duman búrkengen bul sawlatlı imarat mın jıllardıń ǵuwası bolıp, Watan tábiyatına jarasıp turıwshı ǵóne arxitekturalıq-mádeniy estelik sıpatında kórer kózge sıq kórinip, uzaq ótmish haqqında iyǵilikli oylar oyatadı. (I.Yusupov "Ruwxıy mádeniyat ıqlımları haqqında oylar")

Misolimizdagi ko'rar ko'zga issiq ko'rinish frazeologizmi o'zida sinesteziyali hodisani o'zida aks ettira olgan, chunki bunda ko'rish sezgisi bilan harorat sezgisi tushunchasi o'zaro sintezlasha olgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilshunoslikning so'nggi davrlarda yangi yo'nalishlar asosida rivojlanishi so'zlarning ma'nolarini yangicha yondashuvlarda o'rganishni, ularning zamirida yashirinib yotgan turli semantik ma'nolarni ochib berishni bosh vazifa deb bilmoqda. Bu vazifani bajarish uchun tildagi obrazli polisemik ma'nolarning paydo bo'lish yo'llari bilan maxsus stilistik vositalarni o'rganish o'z dolzarbligini oshiraveradi. Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni bajarishga bevosita aloqador bo'lgan ushbu maqolamizdagi tadqiqotlarimiz, hozirgi qoraqalpoq tilshunosligidagi metaforalarning semantik-stilistik turlarini, ularning komponentlaridagi signifikativ va denotativ munosabatlarning tabiatini publitsistik janrning misolida oz bo'lsa ham aniqroq tushunishimiz uchun xizmat qiladi. Shuningdek, metaforizatsion usullar essenavistlarning ijodiy mahoratini aniqlashda, esselarning janr xususiyatlarining yanada aniqroq ochilishiga, matnlarning stilistik xilma-xilligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинің стилистикасы. Нөкіс. Қарақалпақстан. 1990.
2. Allanazarov E. Qaraqalpaq tilinde metaforalardıń stillik qollanıwı. Nókis. "Avangar-baspa", 2022
3. Абдиназимов Ш.. Лингвопоэтика. Тошкент. Ешлар нашриет уйи. 2020
4. Бердимуратов Е. Ҳазирги қарақалпақ тили. Лексикология. –Нөкіс: 1994.
5. Бердимуратов Е. Әдебий тилдің функционаллық стиллеринің раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. Нөкіс. Қарақалпақстан. 1973.
6. Mirzayeva D. Metafora mohiyati va turlari. www.oriens.uz. April, 2023
7. Akbarova M. Sinestetik metafora va gayriodatiy birikmalar. www.econferenceseries.com. December, 2023
8. Abdinazimov Sh. Tolıbaev X. Lingvokulturologiya. Nókis. "Qaraqalpaqstan". 2020
9. Raximova M. "Ózbek tilida esse matnlarining lingvostilistik va lingvokulturologik tadqiqı" Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. Samarqand. 2022
10. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУнашри, 1994